

BE'MANI VAXSHIYLIK QURBONI BO'LGAN DUNYO MO'JIZASI

Omonxonov Javlon Abdumutallibxon o'g'li

JDPU Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan Qadimgi davri me'morchilik san'atining nodir namunasi Artemida ibodatxonasining qurilishi va uning me'moriy uslublari, shuningdek bu davr me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari, ibodatxonaning keying kelajagi u bilan yuz bergan fojeali voqealar, ikkinchi bor qurilishi va hozirgi holati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *“Qadimgi dunyoning yetti mojizasi”, Artemida, Zevs, Krez, Xersifon, Metagenes, Peonit va Demetrius, Gerostrat, Aleksandr Makadoniskiy, Aleksandar Deinokrat, Turkiya, Izmir, Efes, nasroniylik, atipik.*

Аннотация: *В данной статье автор описывает строительство храма Артемиды, редкого образца зодчества Античной эпохи, и его архитектурные стили, а также особенности архитектуры этого периода, будущее рассказывается о храме, трагических событиях, произошедших с ним, втором строительстве и нынешнем состоянии.*

Ключевые слова: *«Семь чудес древнего мира», Артемиды, Зевс, Крез, Герсифон, Метаген, Пеониты и Деметрий, Герострат, Александр Македонский, Александр Дейнократа, Турция, Измир, Эфес, христианство, нетипичное.*

Abstract: *In this article, the author describes the construction of the Temple of Artemis, a rare example of the architecture of the Ancient Era, and its architectural styles, as well as the specific features of the architecture of this period, the future of the temple, the tragic events that happened to it, the second time construction and current condition are discussed.*

Key words: *"Seven Wonders of the Ancient World", Artemis, Zeus, Croesus, Hersiphon, Metagenes, Peonites and Demetrius, Herostratus, Alexander the Great, Alexander Deinocrates, Turkey, Izmir, Ephesus, Christianity, atypical.*

Qadimgi manbalarda O'rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan va o'z salobati, go'zalligi bilan o'sha zamon odamlarini hayratga solgan inshootlardan yettitasi "Qadimgi dunyoning yetti mojizasi" deb yozib qoldirilgan. Bu tarix juda ko'pdan ko'p hodislarga guvoh bo'lgan. Shu mo'jizalar ichida biri vaxshiylik va jaholat qurboniga aylangani tarixdan ma'lum. Bu "Qadimgi dunyoning yetti mo'jizalaridan biri" - Iloha Artemida ibodatxonasi hisoblanadi.

Artemida ibodatxonasi Turkiya Respublikasi Izmir viloyati janubidagi Selchuk shahri yaqinida joylashgan. Ibodatxona o'rnatilgan shahar –Efes hozirda mavjud emas, ammo bir necha ming yillar oldin ikki yuzmingdan ortiq kishi yashagan katta megapolis hisoblangan. [<https://valenteshop.ru/uz/hara-artemidy-v-efese---odno-iz-semi>]

Efes aholisi qadimdan ma'buda Artemidani shahar homiysi, o'zlaring bosh ilohasi deb bilishgan va ma'buda Artemida sharafiga ko'rganlarni lol qoldiradigan ibodatxona qurganlar. Afsonalarga ko'ra, Artemida Zevsning qizi bo'lgan. U hosildorlik, ov va Oy ma'budasi, ayni paytda hayvonlar homiysi, ayollar madadkori, ayol ifati va baxtli nihok homiysi ham hisoblangan. Bu ibodatxona kattaligi, hashamatliligi, go'zalligi va qurilish usuli, shuningdek tarixda uzoq qurilish davri bilan boshqa me'moriy inshootlardan ajralib turgan.

Ibodatxona ikki marotaba qurilgan-birinchi ma'badning qurilishi taxminan 120 yil davom etgan (mil. avv. 550- yillarda) va uch asr otgach yoqib yuborilgan. Qayta tiklash uchun oz vaqt talab etilgan, ammo oldingi bino singari, u ham uch asrdan uzoq yashamadi, vayron etildi. Qurilish uchun pullar afsonaviy boyligi bilan mashhur bolgan Lidiyaning so'nggi qiroli Krezdan kelgan. Knosslik Xersifon bino loyhasi ustida ishlagan, u muqaddas joyni qurish paytida bir qator kutilmagan muammolarga duch keladi va shu sababli bir nechta nostandart, atipik va o'ziga xos yechimlarni qo'llaydi. [Arnold,Irene Ringwood.Festivals of Ephesus (англ.) //American Journal of Archeology: journal.-1972.-vol.77.no.1.-P.17-22]

Shuni ta'kidlash kerakki, bu me'moriy inshaotning me'moriy yechimlari ham hozirda arxealoglarni lol qoldirmoqada. Shuningdek, ibodatxona ustunlai ham o'sha

davrda yaratish uchun juda katta yutuqlardan biri hisoblangan. Uning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, ibodatxona botqoqlik ustiga qurilgan. Buning sababi esa bu hududda ko'p zillzilza bo'lishi va botqoqlik zilzilza kuchini yumushatadi va shu orqali ibodatxonani texnogen ta'sirlardan himoya qilish bo'lgan deya taxmin qilinadi.

Arxeologlarning aytishicha, ibodatxona uzunasiga 104 metr, eniga 50 metrni tashkil etgan. Uning tosh ustunlari esa 18 metrdan baland bo'lgan, ustunlar soni esa 127 tani tashil ettgan va marmardan ishlangan. [<https://uz.denemetr.com/docs/134/index-86050-1.html>] Ibodatxonaning devorlari ichkaridan Praxiteles tomonidan ishlangan haykallar va Scopas tomonidan o'yilgan bo'rtmalar bilan bezatilgan. Ibodatxonaning o'rtasida qora va fil suyagidan yasalgan, qimmatbaho toshlar va metal bilan bezatilgan ma'budning 15 mertli haykali o'rnatilgan. Artemida barcha tirik mavjudodlarning homiysi sifatida hurmatga sazovor bo'lganligi sababli, uning kiyimlarida hayvonlar tasvirlangan.

Ibodatxonaning qurilishi uzoq, 120 il davom etganligi sababli uni qurilishini boshlagan odamlar yakunini ko'risha olmaganlar. Uzoq davom etganiga sabab esa botqoqlikda qurilgani, ya'ni dastlab botqoqlik kovlanib ko'mir va jun solinib so'ngra poydevor qurilganligi va bu uzoq vaqt olgan. Yana bir sababi qurilish ashyolarining qurilish bo'layotgan joyga olib kelish edi, chunki atrof botqoqlik bo'lgan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki quruvchilar bu muammoni ham yechishgan. Bunda quruvchilar ashyolarni botqoq orqali sudrash usulidan foydalanishgan. Qurilishdagi yana bir asosiy muammolardan biri bu bahaybat va og'ir ustunlar bo'lib, ularni joyiga o'rnatish edi. Ammo bu muammo qanday hal qilingani haligacha sir bo'lib qolmoqda. Shu sabablar tufayli qurilish uzoq davom etgan va uni boshlagan me'morlar bitgan binoni ko'rishmagan.

Masalan qurilishni boshlagan me'mor Xersifon qurilish davomida vafot etgan va uni ishini keying davrlarda Metagenes davom ettirgan, ammo u ham vafot etib, qurilishni me'morlar Peonit va Demetrius tomonidan tugallangan. [LiDonnici, Lynn R. The Images of Artemis Ephesia and Greco-Roman Worship: A Reconsideration (АНГЛ.) // Harvard Theological Review : joun.-1992-Vol 85 no.-P/389-415]

Ibodatxona qurilishi naqadar g'aroyib bo'lsa uning vayron bo'lishi ham undan kam emas. Ibodatxona ikki marta qurilib ikki marotaba vayron qilingan.

Birinchi bor vayron etilishi, mil. Avv. 356-yilda Gerostrat degan kimsa nom chiqarish maqsadida ibodatxonaga o't qo'yadi. Lekin uning nomi tarixda bema'ni vahshiylik ramzi bo'lib qoldi. [<https://hozir.org/mavzu-dunyoning-7-mojizasi-reja-qadimgi-dunyoning-7...>] Shuni yodda tutish kerakki bu davrda katta yong'inni o'chirish qiyin ish bo'lgan. Yong'in chiqandan so'ng, ibodatxonadan faqat oq marmarlardan ustunlar va devorlar qoladi, ular shu qadar qoraygan ediki, shu sababli shaharliklar ibodatxonani to'liq buzib yuborishadi. Jinoyatchi Gerostrat o'z aybini tan olib, bu ishni avlodlari uni unutmashligi uchun qilganini aytadi. Shundan so'ng shahar kengashi jinoyatchining ismini hujjatlardan butunlay o'chirib tashlash orqali Gerostratni tarixdan yo'qotishga qaror qiladilar. Hujjatlarda ibodatxonani yoqqan kishini "bir jinni" deb yozishadi, ammo inson xotirasi qatiyatli bo'lib chiqdi va Gerostrat nomi tarixga be'mani vahshiylik nomi bilan muhirlandi.

Ibodatxonaning ikkinchi bor tiklanishiga Aleksandr Makadoniskiy tomonidan moliyalashtirilib, qurilish ishlariga me'mor Aleksandar Deinokrat boshchilik qiladi. Qayta qurish paytida binoning avvalgi rejasiga to'liq amal qilinadi va biroz yaxshilanib, balandroq poydevor qilinib, ibodatxona biroz baland bo'ladi. Efesliklar Aleksandr Makadoniskiyga homiylik qilgani uchun, minnatdorlik ramzi sifatida ibodatxona ichiga Aleksandrning portertini o'rnatishga qaror qiladilar va qo'lida chaqmoq bilan tasvirlangan sur'ati devorga tushuriladi. Bu sur'atning muallifi rassom Apelles hisoblanib, shaharliklar rassomning ishidan xursand bo'lishib, unga 25 oltin berishadi (keying asrlarda hech bir rassom bitta ishi uchun buncha haq olmagan).[*Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона.-1890-1907.*]

Ikkinchi bor tiklangan ibodatxona oldingisidan deyarli farq qilmagan. Ammo bu ibodatxonaning ham qismati ham oldingisidiki singari fojeali bo'ldi. Faqat bunisi oldingisiga nisbatan biroz ko'proq turadi.

Ikkinchi bor vayro etilishi esa gotlar nomi bilan bog'liq bo'lib, gotlar ibodatxonani 262-yili yakson qilinganlar. Bir asr o'tib nasroniylikning tarqalishi va

qabul qilinishi tufayli, budparastlik taqiqlanib, ibodatxona to'liq buzilib marmar boshqa binolar uchun ishlatib yuboriladi. [<https://valenteshop.ru/uz/hara-artemidy-v-efese---odno-iz-semi>]

Hozirga kelib bu mashhur ibodatxonadan bir nechta toshlar va 14 metrlik ustungina saqlanib qolgan. Qolgan qismi esa butunlay vayron bo'lib ketgan va uning qoldig'larini botqoq sorib olgan. Atrofida esa boshqa xristian binolarning qoldig'i bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://valenteshop.ru/uz/hara-artemidy-v-efese---odno-iz-semi>
2. Arnold, Irene Ringwood. Festivals of Ephesus (англ.) // American Journal of Archeology: journal. -1972. -vol.77.no.1. -P.17-22
3. <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-86050-1.html>
4. LiDonnici, Lynn R. The Images of Artemis Ephesia and Greco-Roman Worship: A Reconsideration (англ.) // Harvard Theological Review : journal. -1992. -Vol 85 no. -P/389-415
5. <https://hozir.org/mavzu-dunyoning-7-mojizasi-reja-qadimgi-dunyoning-7...>
6. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. -1890-1907